

HAYOT YO'LIDA ADASHGAN FUQAROLARIMIZGA ALOHIDA E'TIBOR QARATILMOQDA

1

Hayot yo'lida adashgan fuqarolarimizga alohida e'tibor qaratilmoqda

Jazo muddatini o'tab kelgan fuqarolar, ayniqsa, yo'ldan adashgan yoshlarni to'g'ri yo'lga solish va ularga e'tibor qaratgan holda qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan xayrli ishlар tuman hokimligi huzuridagi ijtimoiy ko'nikma markazi tomonidan amalga oshirilayotir. Mazkur markaz tomonidan ushbu fuqarolarni moddiy qo'llab-quvvatlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Sanjarbek Rahimovga ham tuman hokimligi huzuridagi ijtimoiy ko'nikma markazi tomonidan amaliy va moddiy yordam ko'rsatildi. Hazrati Ali mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiladigan Sanjarbek Rahimov berilayotgan e'tibordan albatta mammun va minnatdor.

So'x tuman hokimligi huzuridagi ijtimoiy ko'nikma mutaxassisi Nishonali Ibrohimovning so'zlariga ko'ra, bunday fuqarolar va ayniqsa, yoshlарimiz markaz xodimlarining alohida e'tiborida turishadi. – Ushbu fuqarolarimizni moddiy qo'llab-quvvatalsh va ularning holidan har doim xabardor bo'lib turish bizning oldimizdagi asosiy vazifalardan biri hisoblanadi, - deydi Nishonali Ibrohimov.

Tuman hokimligi huzuridagi ijtimoiy kunikma markazi komissiyasi tomonidan mazkur fuqaroning oilaviy ahvoli o'rganildi va unga eng kam oylik ish haqining 4,5 barobari ya'ni 1 350 000 (bir million ikki yuz ming) so'm miqdorda moddiy yordam puli berildi. Ayni kunda Rahimov Sanjarkbekning bandligini ta'minlash maqsadida tuman tuman bandlikka ko'maklashish markaziga yo'llanma berildi hamda ushbu fuqaroning ishga joylashtirish choralarini ko'rilmogda.

So'x tumani hokimligi Axborot xizmati

2

Bizni ijtimoiy tarmoqlarda kuzating

[Facebook](#) | [Telegram](#) | [Telegram murojaat](#) | [Youtube](#) | [Instagram](#)

2023-04-26 18:19:41